



NISBIY OLMOSHLARNING LUG‘AVIY VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

B.M.Nematov

SamDChTI Ingliz tili nazariyasi kafedrası katta o‘qituvchi

Samsaliyev Oltinbek Muratalievich

Tarjima va tarjimashunoslik kafedrası

katta o‘qituvchisi

Jusup Balasagyn nomidagi KMU

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi nisbiy olmoshlarning mazmuniy (lug‘aviy) va shakliy (grammatik) xususiyatlari yoritiladi. Nisbiy olmoshlarning gapdagi vazifasi, so‘z yasash imkoniyatlari hamda ular yordamida hosil bo‘ladigan bog‘lovchi konstruksiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: olmosh, nisbiy olmosh, grammatik kategoriya, sintaksis, bog‘lovchi birlik, semantika.

KIRISH.

O‘zbek va ingliz tillari grammatik tizimida olmoshlar muhim so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, ular o‘rin egallayotgan so‘zlarning takrorini oldini olish, umumlashtirish yoki mavhum ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Nisbiy olmoshlar esa predmet, belgi, miqdor yoki holatni biror darajada aniqlab, boshqa bir unurni ma’lum bir munosabatda ko‘rsatib turadi. Shuning uchun ular gap bog‘lashda, qo‘shma gaplar tuzishda va matndagi mantiqiy izchillikni ta’minlashda muhim vazifani bajaradi.

ASOSIY QISM.

Nisbiy olmoshlar odatda biror subyekt yoki obyekt haqida qo‘shimcha ma’lumot berish, tushunchalarni aniqlashtirish yoki ularni o‘zaro bog‘lash uchun ishlatiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi nisbiy olmoshlarning ishlatilishi, ularning semantik mazmuni o‘xshash va farqli jihatlarga ega. Bu tillardagi nisbiy olmoshlar, jumla tarkibidagi ularning o‘rni va sintaktik funksiyalari orqali, o‘zlariga xos semantik aniqliklarni berishda muhim o‘rin tutadi.

Ingliz tilida nisbiy olmoshlar bosh va ergash gaplarni bog‘lashda xizmat qiladigan, shu bilan birga ergash gap ichida muayyan sintaktik vazifani bajaruvchi olmoshlar turkumidir. Ular ma’nosi va shakliga ko‘ra ham lug‘aviy, ham grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, gapda bir vaqtning o‘zida bog‘lovchi va olmosh sifatida ishtirok etadi. Ingliz tilidagi asosiy nisbiy olmoshlar qatoriga *who, whom, whose, which, that* kiradi. Ba’zi hollarda *when, where, why* kabi so‘zlar ham nisbiy olmosh vazifasida kelishi mumkin.

Kachalova nisbiy olmoshlarni quyidagicha ta’riflaydi: nisbiy olmoshlar ergash gaplarni bosh gap bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ular birlashma so‘zlar bo‘lib, bog‘lovchilardan farqi shundaki, ular nafaqat ergash gapni bosh gap bilan bog‘laydi, balki ergash gapning a’zosi hamdir.

Ergash gaplarda bosh gapga ergashgan qismni bog‘lash uchun *who (kim), whose, what, which* olmoshlari ishlatiladi. Ular aslida so‘roq olmoshlari bo‘lib, ushbu holatda savol berish uchun emas, gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladi.

There are some really good carers who’ve been told to stop after just two or three years(Kazuo I. Never let me go; 8).

The man who is sitting next to Comrade A. is my English teacher.

Bu yerda *who* olmoshi bosh gapdagi *the man* so‘zining aniqlovchisi bo‘lib, ergash gapni bog‘lovchi va aniqlovchi sifatida xizmat qilmoqda. Ergash gap bosh gapdagi *the man* ismining qanday odam ekanligini



aniqlashtiradi, bu esa defining relative clause (aniqlovchi ergash gap) deb ataladi.

Ingliz tilidagi nisbiy olmoshlar o‘zbek tilidagiga o‘xshash tarzda gaplarni bog‘lashdan tashqari, aniqlik kiritish, izohlash va bog‘lash funktsiyasini birlashtirgan sintaktik birlik sifatida muhim rol o‘ynaydi. Til strukturasi jihatidan bu hodisa gaplardagi predikativlik va aniqlovchilik munosabatini ko‘rsatadi.

Who olmoshi shaxslarga nisbatan qo‘llanib, tobe bo‘lakda ega vazifasini bajaradi. *Whom* olmoshi ham shaxslarga nisbatan qo‘llanib, tobe bo‘lakda to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi.

I was a young offender whom an Accoucheur Policemen had taken up (Charlez D. Great expectations;17).

Ushbu gapda “*whom*” nisbiy olmoshi “*offender*” so‘zini aniqlab kelgan va ergash gapda to‘ldiruvchi vazifasida ishlatilgan. Ya‘ni *an Accoucheur Policemen had taken up whom* – bu yerda “*whom*” politsiyachi tomonidan hibsga olingan shaxsni bildiradi. Grammatik jihatdan “*whom*” o‘zidan oldingi otga subordinativ bog‘lanish hosil qilib, aniqlovchi ergash gapni bosh gapdagi ot bilan sintaktik va semantik jihatdan bog‘laydi. Shuningdek, “*whom*” ergash gapni predikativ asosga tobe qiladi va shu orqali gapning kompleks sintaktik tuzilmasini yaratadi.

There is the man whom we saw in the park yesterday.

Bu gapda ham “*whom*” shaxs bildiruvchi “*the man*” otini aniqlamoqda. “*Whom we saw*” ergash qismi aniqlovchi ergash gap bo‘lib, “*whom*” esa unda to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Gap strukturasi quyidagicha:

We saw whom → the man whom we saw.

Bu yerda “*whom*” orqali ergash gap bosh gapdagi referent (*the man*) bilan grammatik aloqaga kirishadi. Shunday qilib, “*whom*” predikativ munosabatda aniqlovchi ergash gapni bosh gapdagi otga bog‘lash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Who va *whom* olmoshlari ingliz tilidagi ergash gaplarning aniqlovchi turi hosil bo‘lishida ega va to‘ldiruvchi vazifasini bajaruvchi vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. Bular grammatik va semantik jihatdan gap komponentlarining bog‘liqligini ta‘minlaydi.

The man who helped me was very kind.

Bu gapda “*who*” ergash gapdagi fe‘l – “*helped*” ning egasi bo‘lib kelgan. Shuning uchun u nominativ shaklda (*who*), nafaqat shaxsga nisbatan qo‘llanadi, balki ergash gapning predikativ tuzilmasini hosil qiladi. Grammatik jihatdan, “*who*” ergash gapning predikativ markaziga (fe‘lga) ega funksiyasida tobe bo‘lib, shu bilan sintaktik bog‘liqlikni hosil qiladi.

Which jonsiz narsalar va hayvonlarga tegishli bo‘lib, tobe bo‘lakda ega yoki bevosita to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi:

The books which are on the table must be returned to the library today

He showed me the letter which he had received from his brother.

He showed me the skin of the wolf which he had killed

Which nisbiy olmoshi faqat alohida so‘zga emas, balki undan oldingi butun gap yoki gap bo‘lagiga ham nisbat bildirish uchun xizmat qiladi. Bunday holatda “*which*” rus tilidagi “*umo*” olmoshiga mos kelib, “*va bu*”, “*bu esa*” kabi mazmunni ifodalaydi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, “*which*”ning bunday qo‘llanishi struktur jihatdan murakkab sintaktik bog‘lanish hosil qiladi, chunki u:

1. Formada nisbiy olmosh, ya‘ni ergash gapni bog‘lovchi so‘z sifatida;

2. Funktsiyada ko‘rsatuvchi (demonstrativ) olmoshga yaqin, chunki u butun avvalgi fikrni o‘ziga nisbatan bog‘laydi. Bu ikki xususiyatning uyg‘unligi “*which*”ni murakkab grammatik o‘tish birlik sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Masalan, “*He came to see me off, which was very kind of him*” gapida “*which*”ning grammatik mavqeyi quyidagicha tahlil qilinadi:

a) “*which*” – nisbiy olmosh (relative pronoun);

b) u ergash gapning egasi (subjekt) vazifasida turibdi;

c) uning referenti butun bosh gapning mazmuni;



d) ergash gap – non-restrictive relative clause (aniqlovchi, ammo aniqlovchi obyekt soʻz emas, gap).

Demak, “*which*”ning bu turdagi qoʻllanishi sintaktik jihatdan gapdan tashqari referensiya holatini yaratadi. Bu holat ingliz tili grammatik tizimida subordinatsiyaning kengaytirilgan koʻrinishi boʻlib, nisbiy olmoshlar orqali bogʻlangan ergash gaplarning semantik doirasini butun fikrga yoyadi.

XULOSA.

Ushbu tadqiqot davomida oʻzbek va ingliz tillaridagi nisbiy olmoshlarning (relative pronouns) lugʻaviy va grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar ikki tilning tipologik xususiyatlari mazkur turkumning shakllanishi va qoʻllanishida muhim farqlarni yuzaga chiqarishini koʻrsatdi.

Kelgusidagi izlanishlar nisbiy olmoshlarning funksional-stilistik jihatlarini, badiiy va ilmiy uslublardagi qoʻllanish oʻziga xosliklarini hamda boshqa german yoki turkiy tillar bilan qiyosiy oʻrganishni davom ettirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
2. Asqarova M. Oʻzbek tili grammatikasi: Morfologiya. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Sulaymanova N.J. Baho kategoriyasi tadqiqi SamDCHTI., “Philology, Methodology, Translation Studies: Current Issues of Modern Science” International Conference. November 8-9, 2024 41-45 b.
4. Rasulov R. Oʻzbek tili sintaksisi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
5. Karimov X. Oʻzbek tilida olmoshlarning semantik-grammatik tizimi. – Buxoro, 2017.
6. Normatov A., Mamatqulov U. Oʻzbek tili nazariy grammatikasi. – Samarqand, 2021.
7. Quirk R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, –1985. 130 p
8. Swan M. Practical English usage (3rd ed.). Oxford University Press. –2005. – 658 p.
9. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. Москва: Высшая школа. – 1985. –255с.
10. Качалова К.Н. Израилевич Е.Е. Практическая грамматика английского языка. – Киев: Методика, 2003– 363 с.
- ¹ Abdurasulovna, E. Z. (2023). Complex prepositions in english undergoing semantic changes. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 238-241.
- ¹ Abdurasulovna, E. Z. (2023). Manifestation of Causal Meaning in Complex English Prepositions.
- ¹ Mamirova, D. (2026). SOCIOLINGUISTIC RESEARCH OF ADVERTISING TEXTS. Asian journal of scientific research and innovations, 1(1), 155-157.
- ¹ Мирзаханян, А. Е., & Трошкина, Ю. Ю. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕЧАТНОЙ РЕКЛАМЫ КАК ВИДА РЕКЛАМНЫХ НОСИТЕЛЕЙ. In Дизайн: теория и практика (pp. 82-84).
- ¹ Мамирова, Д. (2018). Реклама матнларининг ўзига хос хусусиятлари хақида айрим мулохазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3), 68.
- ¹ Mamirova, D. (2024). REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(1), 45-47.
17. Shirinboyevna, M. D. (2024). NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 39-42.